

**IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI BADIY  
TASVIRINING QIYOSIY TADQIQI (CHINGIZ AYTMATOV VA ODIL  
YOQUBOV IJODI MISOLIDA)**

**YUSUPOV O'TKIRJON G'AYRATJON O'G'LI**

*Namangan davlat universiteti magistratura bo'limi "Adabiyotshunoslik"*

*(O'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich magistratura talabasi*

+998996435595

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada Odil Yoqubov romanlarida psixologik tasvir mahorati yoritilgan. Adibning bir nechta asarlari misolida mavzu to'liq ochib berilgan.*

*Maqolada ikkinchi jahon urushi va jahon adabiyotining yetuk namoyandasi Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" va XX asr o'zbek adabiyotining ist'edodli vakili Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" qissalaridagi mushtarak g'oyalar tahlilga tortilgan.*

**Kalit so'zlar:** *mavzu, g'oya, janr, obraz, uslub, qiyosiy tahlil, Odil yoqubov, roman, psixologik tasvir, ichki-ruhiy olami.*

**KIRISH**

Badiiy adabiyotda psixologik-ruhiy tasvirning o'rni benihoya kattadir. Yozma adabiyotda psixologik-ruhiy tasvir tushunchasi ostida adabiy qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosi, orzu-o'ylari, kechinmalari, kayfiyatlari hamda intilishlarini yuksak badiiylik asosida tasvirlash san'ati yotadi.

Uning mohiyatini esa, qahramon xarakteriga xos xislatlarning, ruhiy olamining qay holda, qay vaziyatda ochilishi belgilaydi. Yozma adabiyotda psixologik tasvir anchagina chuqur va ko'p qirralidir, ya'ni unda, nafaqat ruhiy-psixologik tasvir, balki ruhiy tahlil hukmronlik qilish darajasiga yetadi. Ruhiy tahlil kuchli bo'lgan adabiy-badiiy asarlarda har bir detal, xatti-harakat, epizod, har bir voqea u yoki bu qahramonning ichki-ruhiy olamini ochishga bo'ysundiriladi.

O.Yoqubov qissalari qahramonlarining o'ziga xos ma'naviy olami qanday

badiiy talqin etilganligi, yozuvchi asarlarida hayotning qaysi jihatlarini tasvirlashga moyillik mavjudligi hamda qaxramonlarining umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarini o'quvchi shuuriga ko'chirishning badiiy mezonlarini oydinlashtirganligini aniqlash masalasi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI**

Tabiat va jamiyatda asosan takrorlanuvchi, bir-biriga o'xshash yoki o'z tabiati, tuzilishi, mohiyati bilan bir-biriga zid bo'lgan narsa-hodisalar qiyoslash obyekti bo'lib xizmat qiladi. Bu hol adabiyotshunoslik fani, xususan qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ham badiiy-estetik metod vazifasini bajaradi. Adabiyotshunoslikda ma'lum bir yozuvchi yoki shoir ijodini milliy va xalqaro adabiy an'analar bilan qiyoslab o'rganish muhim ilmiy- nazariy ahamiyatga ega. Chunki, shunday qiyoslashlar orqali yozuvchining ijodiy mustaqilligi va uning ham milliy, ham jahon adabiyotidagi o'rni belgilanadi. Yozuvchi ijodining o'ziga xos qirralarini o'rganishda va anglab yetishda uni boshqa bir ijodkorning o'xshash asarlari bilan qiyoslab tahlil qilish muhimdir. Qaysi mashhur asarni olmaylik, u avvalo, ma'lum bir millat vakilining ijodiy merosi, u yoki bu xalqning ma'naviy boyligi sanaladi. Masalan, Chingiz Aytmatov asarlari qirg'iz xalqining ma'naviy boyligi bo'lishi bilan birga, butun jahon xalqlarining adabiy merosi sanaladi.

Chunki, adib asarlarida ifodalangan insonparvarlik, mardlik, do'stlik, sadoqat kabi umumbashariy g'oyalar barcha xalqlar uchun birdek qadrlil va ahamiyatlidir. Biz quyida Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" va o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" qissalaridagi mushtarak g'oyalar va o'ziga xosliklar haqida so'z yuritishni maqsad qildik. Bir qarashda turli ijtimoiy-tarixiy davrda yashagan va turli milliy ma'daniy qatlamga mansub ikki qahramonning mushtarak jihatlari mavjudligi kishini hayratga soladi.

"Birinchi muallim" va "Sirli muallim" qissalariga diqqat qaratadigan bo'lsak, ularda turli davr voqealari badiiy ifoda topgan bo'lsada, syujetining shakllantirilishida mushtaraklik bor. Ikkala asar ham realistik uslubda yozilganligi sababli voqealar sabab-oqibat zanjirida rivojlanib boradi. Har ikki asarning bosh

qahramoni o'qituvchi. O'qituvchi bo'lganda ham millatning kelajagi bo'lgan, yoshlarning ziyoli bo'lishini chin dildan istagan va o'z imkoniyati darajasida kurashgan fidoyi o'qituvchi. "Birinchi muallim" asarida Duyshen- kichkina qirg'iz ovulida katta voqealarga sabab bo'lgan. Egniga qora movutdan tikilgan shinel kiyib yuradigan baland bo'yli, burgut qovoq, salobatli bu yosh yigit: chala savod qirg'iz ovulini savodli qilishda, muallimlikdek ulug' kasbni zimmasiga olgan. Allaqaysi boydan qolgan otxonani "maktab" dek ulug' dargohga aylantirgan jasoratli inson.

"Sirli muallim" asari qahramoni Najot G'aybulla- baland bo'yli, kelishgan, yuzlaridan allanechuk nur yog'ilib turadigan, qiroat bilan salomlashadigan, hamisha yangi va orasta kiyimlar kiyadigan, yurishturishi viqorli bir yigit. Bu ikki muallimning tashqi ko'rinishida va ust boshida yer bilan osmoncha farq ko'rsakda, lekin ruhiy olami birdek. Duyshen va Najot G'aybullaning bir-biriga o'xshash sifatlari anchagina.

Muallimlikning eng oliy cho'qqisida turuvchi bu ikki inson bolalarni va o'z kasblarini chin yurakdan sevishi bilan atrofdagilardan ajralib turishadi. Ulardagi jasorat tirishqoqlik, maqsadlariga erishish yo'lida har qanday to'siqqa bosiqlik ila bas kelishlari, ulardagi mushtarak sifatlarning yana bir isbotidir. Duyshenning: "O'zim nimani bilsam, sizlarga ham shuni o'rgataman..." kabi so'zlaridan, yetti-pushti savodsiz o'tgan bu bolalarni, o'zi hijjalab o'qisada o'qish yozishga o'rgatishi qahramonlikdir.

Adabiyotshunos U. Normatov e'tirof qilganidek, "Adib asarlari avvalo hayotiyli, haqqoniyli, davrning o'tkir ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalarini dadil o'rtaga qo'yganligi, inson va uning qalbi haqidagi haqiqatning yangi qirralarini ochishga qaratilganligi, keskin drammatizmi, teran gumanizmi, inson hayoti xususidagi ehtirosli bahs-munozaralari bilan ajralib turadi.

Yozuvchi o'zbek romani poetikasiga ko'pgina yangiliklar olib kirdi, polifonik roman namunalarini yaratdi." Adib izlanishlarida roman syujetining o'ziga xosligi va teran falsafiy mantiq uzviyligi, ruhiyat tasviri va ifoda mustaqilligining uzviy birligi yetakchilik qiladi. Adib romanlarida xarakter yaratish mahorati o'ziga xos ravishda kechadi. Xoh u zamonaviy mavzuda bo'ladimi, xoh tarixiy mavzudami,

qaysi muammoni tasvirlashdan qat'iy nazar, Odil Yoqubov zukko kitobxonni inson qalbiga yaqinlashtirib qo'yadi. Kitobxon ham aynan ushbu jarayon ishtirokchisiga aylanadi. Jonli tasvir bo'yoqlarida qahramon iztiroblarini, quvonchu shodliklarini xuddi o'zinikidek qabul qiladi. Bu kabi xususiyatlar adib ijodiy kredosining muhim, ajralmas halqalarini tashkil etadi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O.Yoqubov yozuvchi sifatida elga tanitgan asar 1961 yili e'lon qilingan «Muqaddas» qissasi bo'ldi. «Tengdoshlar»dan «Muqaddas» qissasiga qadar o'tgan o'n yillik davr go'yoki yozuvchi uchun ijodda o'zligini topish yo'lidagi betinim izlanish, odat tusiga kirgan adabiy qoliplar bilan murosasiz olishi, ma'lum «konfliktsizlik nazoriyasi» asoratini, kitobiylik ta'sirini engib o'tish yo'llari bo'ldi. Muallif «Muqaddas» qissasida hayotning o'zidan olgan zavqini, o'z yurak dardini, hayajonlarini izhor etdi, o'zi qalamga olgan hayotiy hodisalarni ziddiyatlari, chinakam nafosati bilan kitobxonga etkaza oldi. Qissada ikki yoshning hayotdagi ilk mustaqil qadamlari, quvonch va tashvishlari nihoyatda samimiy hikoya qilingan, eng muhimi, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan gap kitobxon ko'ngliga hayajon soladigan darajada go'zal bir poetik shaklni topa olgan: Yozuvchi romanlaridagi umumiy bir sifat shundan iboratki, u shaxs psixologiyasining o'rab turgan muhit xarakteri bilan murosa-madora qilmasligida qabarib ko'rinadi. Uning yaratgan qahramonlari jamiyat hayotida, kundalik turmushida ro'y berayotgan nohaqliklaru adolatsizliklar, ko'zbo'yamachiliklaru firibgarliklarga qarshi murosasiz kurash olib boradi. «Diyonat» ham o'z davrining mahsuli bo'libgina qolmasdan, XX asr nasrining barmoq bilan sanarli asarlari sirasida turishini hech kim mubolag'aga yo'ymasa kerak. Badiiy asar shundayki, sof san'at namunasi yillar, asrlar o'tsa hamki eskirmaydi, har qanday tuzum va davr qobig'idan yorib o'tib, odamzod kelajagi uchun beminnat xizmat qilaveradi. Shu ma'noda Odil Yoqubov olamning go'zalligi, insoniyatning shu go'zallikka munosabatini, gumanizm mohiyati va qadrqimmatini butun ijodi badiiy to'qimalariga yoyilib ketgan milliy ma'naviyat ifodasiga singdiradi. Odamzodning ruhiy barkamolligi, ezgu maqsadi haqidagi falsafiy teran tasvir yo'nalishi adibning dunyoqarashi va nazariy tasavvuri kengligidan dalolat

beradi. Shuning uchun ham ijodkorning har bir asarida, xoh u kichik janr bo'lsin, xoh u yirik hajmli polotno bo'lsin, diyonat, oqibat va mehr-muhabbat tushunchalari talqini markaziy chiziqni tashkil etadi. Boshqacha aytganda, sog'lom e'tiqod tadriji qahramon xarakterining uzviy qismiga aylanadi. Tasvirdagi aniqlik esa aynan kichikdan kattaga, xususiy hodisalardan hayotiy umumlashmalarga bo'lgan intilishning kuchliligi bilan izohlanadi. O'z navbatida yozuvchi g'oyaviy munosabati xalq ruhiyati, millat istiqbolini atroflicha tahlil qilish vositasida oydinlashadi. Bu munosabat insoniyat kelajagiga ishonch bilan qarash, uni idrok etish va tushunish nuqtai nazaridan mantiqiy yaxlitlik kasb etadi. Aslida ijodiy mantiqning asl mazmuni ham millat irodasi va maqsad-intilishlarini chuqur o'zlashtirishga borib taqaladi. Chunki, mazkur tushuncha, xarakterli belgini axtarish va unga urg'u berish mushtarakligidan oziqlanadi.

Oltinoy Sulaymonovaning "akademik" bo'lib yetishishida uning shunday o'quvchilar tarbiyalaganini va o'zining oliy maqsadiga qisman erishganini ko'ramiz. "Sirli muallim" asarida ham Najot G'aybullaning, o'qituvchilikdek ulug' kasbni etagidan tutib, kasbiga jon- jahdi bilan yondashib, o'zidan ajoyib izdoshlar qoldirishni maqsad qilganini ko'ramiz. Va albatta, ularning eng oliy maqsadi vatanining, yurtining koriga yarovchi, ziyoli insonlarning sonini orttirishni, maqsad qilishlaridir. Muallimlar arofida yig'ilgan ba'zi insonlarni "gumrohlar" deb atashimiz mumkin.

"Birinchi muallim" asarida Oltinoyning yangasi, Satimqul tajang va boshqalarning Duyshenga ters muomalalarini ko'rishimiz mumkin. Ocharchilikda yashayotgan va ilmning asil mohiyatini anglolmagan bunday insonlar uchun tabiiy hol albatda. Muallimning bolalarni o'qitishi uchun ko'mak berish o'rniga, uni kamsitishdi. Albatta bunday "insonlar" makon va zamon tanlamaydilar. Najot G'aybullaning atrofida gilar esa o'zlari sezmagani xolda unga havas yoki xasad qilishdi. Uning salohiyatiga shubxa bilan qarashdi. X.Xurramovich, Ulash "agranomshoir" kabi insonlar Najot muallimga doim shubxa bilan qarashib, uning faoliyatini to'xtatishga urinishdi.

Ularga bepisandlik bilan munosabatda bo'lishdi. Lekin, Duyshenga yordam

qo'lini cho'zgan: Sayqal buvi va Qartangboy otani asl inson sifatida ko'rsata olamiz. Qiyoslangan mazkur ikki asar arxitektonasida farq bo'lsada, yozuvchilarning bosh qahramon tanlash tamoyili, ifodalagan mavzu va g'oya nuqtai nazaridan mushtaraklikni ko'rish mumkin. Turli tarixiy-ijtimoiy sharoit, turli mentalitet, turlicha hayot tarziga ega bo'lgan qahramonlarimizni yaqinlashtirgan narsa, bu ularning ruhiy olami, orzu- intilishlarining mushtarakligidir. Ya'ni ilm-ma'rifat orqali dunyoni jaholat va halokatdan asrab qolish.

### **XULOSA**

Romanchilikda Sharq va G'arb adabiy an'analari sintezi yangi zamonning ijtimoiysiyosiy, ma'naviy-madaniy, individual-ruhiy hamda adabiy hodisalarning bevosita yangilanishni taqozo etishi tufayli yuzaga keldi. Zamonaviy romanchilikda o'tmishda paydo bo'lgan, asrlar davomida sayqal topgan tamoyillar yangi davr ijtimoiy-tarixiy sharoitining yetilgan ehtiyojlari nuqtai nazaridan estetik idrok qilindi. So'z san'atkorining ijodiy erkinligi uni badiiy ijodning asl tabiatiga yaqinlashtirdi. Hayotni realistik tasvirlash tamoyillari rivojlantirildi. Badiiy haqiqatning mezonlari yangilandi. Badiiy didi kamol topgan kitobxon ehtiyojlarini nazarda tutgan yozuvchilar milliy roman poetik ifoda uslubida murakkablikka, falsafiylikka, ramziylikka intildilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т., Фан, 1983.
2. Н.Қобилова. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадий психологизм. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (ПхД) дисс. – Бухоро, 2020.
3. Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini o'stirish. Academic research in educational sciences, 2(3)
4. Adabiyot o'qitish metodikasi / o'quv qo'llanma: Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova.: 2018-yil. – 352 bet.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

5. Aytmatov Ch. Birinchi muallim.-Toshkent:” O’qituvchi”,1986.
6. Luqmon Bo’rixon. Xizir ko’rgan yigit”.-Toshkent: “Sharq”, 2007.
7. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik.-Toshkent:”Akademnashr”,2020.